

ZAMONAVIY TARBIYACHINING PEDAGOGIK ODOBİ

Gulboyeva Sayyora Qo'shboqovna

Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumani

18- DMTT da tarbiyachi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada mактабгача та'lim ташкiloti tarbiyachisining pedagogik odobi va normalari xaqida so'z borgan.*

Kalit so'zlar: *izchillik, pedagogik odob, odob normalari, muloqot, dunyoqarash, milliy-axloqiy sifatlar, qoidalar, axloqiy fazilat.*

Аннотация: В данной статье говорится о педагогическом этикете и нормах педагога дошкольной образовательной организации.

Ключевые слова: система, педагогический этикет, нормы этикета, общение, мировоззрение, национально-нравственные качества, правила, нравственная добродетель.

Abstract: This article talks about the pedagogical etiquette and norms of a teacher of a preschool educational organization.

Keywords: consistency, pedagogical etiquette, etiquette norms, communication, worldview, national-moral qualities, rules, moral virtue.

Pedagog-tarbiyachining mahoratini to'la amalga oshirish uchun, avvalo, pedagogik mahorat tushunchasining mohiyat-mazmunini bilish, uning barcha komponentlari to'g'risida ma'lumotga ega bo'lib, ularning birligi, izchilligini ta'minlash lozim. Chunki ularning birini o'zgarishi, tabiiy holda ikkinchisining o'zgarishiga olib keladi. Pedagog-tarbiyachi umuminsoniy va milliy-axloqiy fazilatlarni o'zlashtirib olishi, tajribada qo'llashi, o'zining dunyoqarashi, mafkurasi vaa axloqiy tajribasi bilan taqqoslash lozim. Fikrlash va his etish, turmushda sinab ko'rish natijasida umuminsoniy va milliy-axloqiy sifatlar, qoidalar, normalar pedagog-tarbiyachining o'z axloqiy fazilatiga, e'tiqodiga aylanadi. Pedagog-tarbiyachi odobining normalari har bir muallimning shaxsiy fikriga, axloqiy fazilati va e'tiqodiga aylanishi lozim. Axloqiy e'tiqod va sifatlar pedagog-tarbiyachining dars berish jarayonida, tarbiyaviy ishlarida, tinglovchilar, ota-onalar va boshqa kishilar bilan muomala, munosabatlarida, kundalik turmushda o'zining shaxsiy namunasi bilan axloqiy ta'sir o'tkazishida ko'zga tashlanadi. Pedagogik takt pedagog-tarbiyachi axloqining amaliy ko'rinishlaridan biridir. Muallim xulqining natijalari uning yoshlarga axloqiy ta'sirining samaradorligida, axloqiy tarbiya sohasida erishgan yutuqlarida namoyon bo'ladi.

Pedagog-tarbiyachi odobining asosiy sifatlari umuminsoniy va milliy-axloqiy fazilatlar, tushunchalariga mos keladi va ularni pedagogik faoliyat bilan bog'liq tarzda bir qadar oydinlashtiradi, aniqlaydi. Insonparvarlik, vatanparvarlik, milliy g'urur, baynalmilalchilik,adolat, yaxshilik qilish, burch, qadr-qimmat, mas'uliyat, vijdon, halollik, rostgo'ylik, poklik, talabchanlik kabi axloqiy fazilatlar pedagog-tarbiyachi odobida pedagoglik faoliyati bilan bog'liq ravishda tahlil qilinadi. Ta'lif oluvchilarga yaxshilik qilish, pedagog-tarbiyachilik burchi, pedagog-tarbiyachilik sha'ni, qadr-qimmati, pedagog-tarbiyachilik mas'uliyati, pedagog-tarbiyachilik vijdoni, talabchanlik vaadolatli bo'lish, pedagog-tarbiyachining ma'naviy qiyofasi halolligi, pokligi, rostgo'yligi kabilalar pedagog-tarbiyachi axloqining muhim fazilatlari hisoblanadi. Ularni chuqur va puxta o'zlashtirish bo'lajak pedagog-tarbiyachi uchun katta amaliy ahamiyat kasb etadi.

Pedagog-tarbiyachi odobining mohiyati, asosiy mazmuni pedagogik faoliyat uchun muhim bo'lgan axloqiy sifatlarda ifodalanadi. Umuminsoniy va milliy-axloqiy fazilatlar barcha kishilar, hamma kasb egalari, jumladan, pedagog-tarbiyachilar uchun ham juda zarurdir.

Odob deganda, rasm-taomil, xulq-odatlar majmui, ijtimoiy-iqtisodiy tuzum taqozosi bilan turmush sharoitining alohida tarzi, an'analari negizida odamlar o'rtasida paydo bo'lgan muomala-munosabatlarning xususiyatlari tushuniladi.

Odob kishilarning amaliy xatti-harakatlari, muomala-munosabatlari ham deb qaraladi.

Pedagog odobi umuminsoniy va milliy axloqning qonuniyatları, vazifalari, tamoyillari, tushunchalari, talablari, mezonlarini ta'lif-tarbiya jarayonida oydinlashtirib, pedagogning ta'lif oluvchilar, kasbdoshlari, ota-onalar, ta'lif muassasasi rahbarlari bilan munosabatlarida namoyon bo'ladigan kasbiy-axloqiy xususiyatlari yig'indisidir.

Axloqiy fazilatlar mehnat jarayonida kishining xulqi, fe'l-atvorini tartibga solib turuvchi axloqiy qoidalar, normalar, talablar, mezonlar shaklida ifodalanadi. Axloq normalari davlatning turli qonunlari bilan amalgalashiriladigan huquq normalaridan farq qilib, ommaviy odat va namuna kuchi, jamoatchilikning fikri ta'sirida yuzaga keladi. Boshqacha qilib aytganda, ijtimoiy voqelik shaxs oldiga ma'lum axloqiy talablar qo'yadi, bu talablar axloq normasi, axloqiy fazilatlar shaklida ifodalanadi. Jamiyat o'z faoliyati va istiqboli uchun xizmat qiladigan axloq normalari, talablar, mezonlarini belgilaydi.

Xulosa qilib aytganda, pedagog odobi eng avvalo, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning o'zaro munosabatlarida namoyon bo'ladi. Biroq bunday yondashuv bir qadar cheklangan nuqtai nazar ekanligini ta'kidlash joiz. Zero,

tarbiyachining kasbiy axloqi faqat tarbiyalanuvchilar bilan muloqoti jarayonidagina namoyon bo'lmaydi, balki uning butun faoliyati davomida birinchi darajali ehtiyoj sifatida ifodalanadi. Boshqacha aytganda, pedagog odobi tushunchasi tarbiyachi dunyoqarashining hayotiy tizimini anglatadi. Pedagog odobi tushunchasining mazmuni axloqiylik bilan birga iqtisodiy, siyosiy, huquqiy jihatlarni ham o'z ichiga qamrab oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirishga karatilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimcha kiritish to'g'risida. 08.08.2018 y. PQ-3904.
2. Gaynazarova G.A. Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachilarida pedagogik maxoratni shakllantirishning o'ziga xos jihatlari. Maktabgacha ta'lim. Jurnal. 2017. №4.
3. Azizzodjayeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik maxorat. T.: TDPU 2003. 175 b.
4. Abdullayeva X.A. Mashg'ulotlarda faol ta'lim usullaridan foydalanish. – Farg'ona: FarDU, 2008.
5. Inoyatov U.I., Muslimov N.A., va boshq. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob:- Toshkent, "Ilm-Ziyo" nashriyoti. 2012.
6. . www.tdpu.uz
7. www.pedagog.uz
8. [tdpu - INTRANET. ped.](http://tdpu.intranet.ped)